

SAYFIDDIN QUTUZ TARIXINING YANGI SAHIFALARI

*Atajanov G'ulomjon Urinboyevich, Oriental universiteti magistranti,
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyati bo'limi
bosh mutaxassisi*

NEW PAGES OF THE HISTORY OF SAIFIDDIN KUTUZ

*Atajanov Gulomjon Urinboyevich, master's student of Oriental
University, chief specialist of the Khorezm regional branch of the
Republican Center for Spirituality and Enlightenment*

НОВЫЕ СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ САЙФИДИНА КУТУЗА

*Атажанов Гуломжон Уринбоевич, магистр университета
Oriental, главный специалист Хорезмского областного филиала
Республиканского центра духовности и просветительства*



<https://orcid.org/0009-0002-9843-4255>

e-mail:
gulomjonotajonov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Yevroosiyo mintaqasining mo'g'ullar tomonidan istilo etilishi, musulmon olamining so'nggi tayanchi bo'lgan Mamluklar davlatining tuzilishi, Sayfiddin Qutuzning tarix sahnasiga chiqishi va u boshchiligidagi Ayn Jalut jangidagi tarixiy g'alaba haqida mulohazalar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Anushteginiylar, Jaloliddin Manguberdi, Ayyubiylar, Maqriziy, Mahmud ibn Mamdud, Shajar at-dur, Ayn Jalut, Xulogu, Kitbug'a, Beybars Bunduqdoriy.

Abstract: The article discusses the Mongol conquest of the Eurasian region, the establishment of the Mamluk state as the last stronghold of the Muslim world, the rise of Sayf al-Din Qutuz to the historical stage, and the historic victory under his leadership at the Battle of Ain Jalut.

Key words: Anushteginids, Jalaliddin Manguberdi, Ayyubids, Maqrizi, Mahmud ibn Mamdud, Shajar at-Dur, Ain Jalut, Khulagu, Kitbuga, Baybars Bunduqdari.

Аннотация: В статье упоминается завоевание Евразийского региона монголами, образование государства мамлюков, последнего оплота мусульманского мира, появление на арене истории Сайфиддина Кутуза и историческая победа в битве при Айн-Джалуте под его руководством.

Ключевые слова: Ануштегиниды, Джалалиддин Мангуберди, Айюбиды, Макризи, Махмуд ибн Мамдуд, Шаджар ат-Дур, Айн Джалут, Хулогу, Китбуга, Бейбарс Бундукдари.

KIRISH (INTRODUCTION). 1219-yil Chingizxon va uning 3 o'g'li boshchiligidagi 150 ming kishilik mo'g'ul qo'shini Xorazmshohlar mamlakatiga yurish qiladi. Mamlakat "O'tror

voqeasi" bahonasida boshlangan 1221-yilga kelib 4 qismga bo'lingan Chingizxon qo'shini tomonidan birin-ketin egallanadi. Dastlab O'tror, Xo'jand, Banokat, Jand, Yangikent, Borchig'likent, Sig'noq,

Buxoro, keyinchalik Samarqand, Gurganj va boshqa shaharlar zabt etildi. Bu shaharlar ichida faqatgina Gurganj va O'tror shaharlari qariyb yarim yildan ziyodroq, Toliqon esa bir yildan ortiq vaqt davomida qamalga dosh bera oldi, xolos.

Mamlakat poytaxti Gurganch Chingizxonning topshirig'iga ko'ra, o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy tomonidan qamal qilindi. Keyinchalik ularga Jo'ji o'z qo'shinlari bilan qo'shildi¹. Bu paytda Alouddin Muhammad Abeskunga qochgan, Jaloliddin Manguberdi unga uyushtirilajak suiqasd haqida eshitib Temur Malik bilan Xurosonga qarab ketgan, Turkon xotun esa o'z xizmatkorlari, nabiralarini olib vazir Muhammad ibn Solih bilan Mozandarondagi Ilal qal'asiga yashiringan edi². Gurganch 7 oylik qamaldan so'ng mo'g'ullar tomonidan egallanadi.

1221-yil Ilal qal'asida turgan Turkon xotun Subutoy boshchiligidagi mo'g'ullar tomonidan 15 kunlik qamaldan keyin taslim etiladi va Toliqonga, Chingizxon huzuriga yuboriladi³. Tadqiqochilar tomonidan esa o'rganayotgan qahramonimiz Sayfiddin Qutuz mana shu davrda mo'g'ullar qo'liga asir tushgani taxmin qilinadi⁴.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Sayfiddin Qutuz tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rta asrlarning bir qator manbalarida uchratish mumkin. Afsuski, ushbu birlamchi manbalarining deyarli hech biri o'zbek tiliga o'girilmagan. Ayniqsa, Mamluklar davri tarixchilari asarlarida ma'lumotlar nisbatan batafsil taqdim etiladi. Umuman olganda, Sayfiddin Qutuz tarixiga oid manba va tadqiqotlarni quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin: 1.Musulmon manbalari; 2.Mo'g'ul manbalari; 3.Xristian

manbalari; 5.Arman manbalari; 6.Suryoniy manbalar; 7.Zamonaviy tadqiqotlar⁵.

Musulmon manbalari orasida Sayfiddin Qutuz haqidagi eng noyob va ishonchli ma'lumotlar **Abu Muhammad Taqiyuddin Ahmad Maqrizi**ning (1364-1442-yy.) "**As-suluk li-ma'rifat duval al-mulk**" ("Podsholarning davlatlarni bilish yo'llari"), Maqriziyning shogirdi **Ibn Tangriberdining** (1411-1470-yy.) "**An-Nujum al-zahira fi muluk Misr val-Qohira**" ("Misr va Qohira shohlarining yorqin yulduzlari"), **Shihabiddin Fazlulloh Al-Umari**ning (1300-1348) "**Masalik ul absor fi mamalik al-Amsar**" (*Mamlakatlarning yirik shaharlarini tavsiflash yo'llari*), **Shihobiddin Ahmad Ali Al-Qalqashandi** tomonidan yozilgan "**Kitab Subh al-a sha fi sinaat al-insha**"⁶, shuningdek, **Abu Abdulloh Izzuddin Ibn Shaddad** (vaf.1285), **Abu Abdulloh Jamoladdin Muhammad ibn Vosil** (1208-1298), **Beybars al-Mansuriy** (vafoti 1325-yil), **Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy**, **Ibn Asir**, **Sibt ibn al Javziy**, **Sayfiddin Davodoriy**, **Ibn Kasir**, **Ibn Holdun**, **Mirxond** hamda **Xondamir** asarlarida biz tadqiq qilayotgan davr va voqealar xususida ma'lumotlar keltirilgan⁷.

Mo'g'ul amaldorlari topshiriqlari asosida tayyorlangan **Atomalik Juvayni**ning "Tarixi jahonkusho", **Rashididdin Fazlulloh Hamadoni**ning "Jom'e at-tavorix", **Qazvini**ning "Tarixi Guzida" asarlari, arman manbalari orasida **Ganjalik Kiragosning** "Arman tarixi", **Vardapet Vardanning** "Jahon tarixi", **Aknerlik Grigorning** "Kamonchi xalq tarixi" asarlari, suryoniy hamda xristian manbalari sifatida **Yosir Ilyos**, **Malatyi**⁸

¹ Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotixi tarixi). Nazarbek Rahim tarjiması, mas'ul muharrirlar H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. B. 164.

² Z.Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)// A.Ahmad va M.Mahmud tarj.; Mas'ul muharrir; X.Sodiqov/. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Aabiyot va san'at nashriyoti, 1998. B. 189.

³ Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotixi tarixi). Nazarbek Rahim tarjiması, mas'ul muharrirlar H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. B. 416.

⁴ Altan Çetin. Celaledin Mengüberdi'nin akrabası moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz'un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

⁵ Muhammed Said Güler. Moğol İstilası ve Aynıçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. S. 1.

⁶ <https://kmu.edu.tr/kamam/bilgi/1362/4-memlukler-donem-kaynaklari>

⁷ Muhammed Said Güler. Moğol İstilası ve Aynıçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. S. 1-36.

⁸ Muhammed Said Güler. Moğol İstilası ve Aynıçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. S. 37-47.

asarlariga ham bu davr tadqiqotchilari murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

XX-XXI asrlar davomida Sayfiddin Qutuz tarixiga oid ma'lumotlarni asosan arab, turk hamda Yevropa tadqiqotchilari asarlarida topish mumkin bo'ladi. Yevropalik tadqiqotchi Mark Mersiyerning 1999-yil chop etilgan "Mamluk tarixi bibliografiyasi"da Mamluklar davri yuzasidan turli sohalar, xususan, boshqaruv, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, numizmatik, madaniyat va san'at, arxitektura hamda adabiyotiga oid 4 mingga yaqin ilmiy tadqiqotlar katalogi taqdim etilgan⁹.

Yurtimizda esa Sayfiddin Qutuz tarixiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari so'nggi yillarda yuzaga kela boshladi. Biz uchun tanish bo'lgan **Ziyo Bunyodovning "Anushtagin Xorazmshohlar davlati. 1097-1231"** asarida bir qator ma'lumotlar keltiriladi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori **Bekzod Abdirimovning "Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha", "Sayfiddin Qutuz – so'nggi zarba"** asarlari orqali O'zbekistonda keng jamoatchilikka ushbu shaxsni batafsil tanishtirishning dastlabki yirik qadamlari bosildi. **Shahodat Ulug'** tomonidan **"Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz"** tarixiy romani bosilib, Sayfiddin Qutuz badiiy adabiyotda ham o'z o'rnini topa boshladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION). Sayfiddin Qutuzning kelib chiqishi haqidagi qarashlar. Qutuz so'zining mazmuni borasidagi tahlillar. Sayfiddin Qutuzning dunyoga kelishi va oilasi bilan

bog'liq ma'lumotlarda ayrim chalkashliklar mavjud. Umuman Sayfiddin Qutuzning dunyoga kelishi va oilasi xususida eng asosiy ma'lumotni Maqriziyning "As-suluk fiy ma'rifa duval al-muluk" asarida, shuningdek, Ibn Tangriberdi, Zahabiy, Ibn Xaldun, Suyutiy¹⁰, Abdulloh Yununiy, An-Nuvayriy, Al-Ayniy¹¹larning asarlarida uchratish mumkin. Ularga ko'ra Sayfiddin Qutuz Anushtaginiylar sulolasining vakili bo'lib, uning to'liq ismi Mahmud ibn Mamdud Sayfiddin Muzaffar Qutuzdir. Manbalarda otasi Jaloliddin Manguberding amakisi, onasi esa opasi ekanligi keltiriladi¹². Qutuzning otasining kimligi haqida fikr bildirilar ekan, turkiyalik tadqiqotchi Altan Çetin sulton Alouddin Muhammad Xorazmshoh qizlaridan birini Mamdud ismli qarindoshiga turmushga bergani, Qutuzning otasi Mamdud Alouddin Muhammadning inisi bo'lgan Tojiddin Alishoh, Yunus xon, To'g'an tug'di yoki Malikshohning, yo mazkur xonadonga mansub boshqa bir shaxsning o'g'li bo'lishi mumkinligi haqida¹³ aytadi. Qutuzning onasi sifatida esa Xonsulton bir necha joyda qayd etiladi. Xonsultonning Samarqand xoni Usmonning xotini bo'lganligi, Usmonning Xonsultonga qo'pol munosabatidan keyin – 1212-yil Samarqand Alouddin Muhammad tomonidan egallangani ma'lum. Juvayniyga ko'ra, mo'g'ullar istilosidan keyin Chingizxon 1221-yil Ilal qal'asidan keltirilgan Turkon xotun va oilasini, aynan Xorazmshoh qizlarining ikki nafarini Chig'atoyga asir sifatida beradi. Nasaviy esa Xonsulton Jo'jiga berilganini qayd etadi¹⁴. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, keyinchalik Jo'ji va Xonsultondan Oltin o'rdaning

⁹ [https://www.academia.edu/34772375/An_mamluk-history_bibliography_pdf](https://www.academia.edu/34772375/An_mamluk_history_bibliography_pdf)

¹⁰ B.Abdirimov, W.Sajjad. Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda / Sultan Jalaluddin Khuwarzam Shah In Pakistan. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. B. 202.

¹¹ Altan Çetin. Cellaeddin Mengüberdi'nin akrabasi moğollari yenen harzemshahli bir mamlük sultani Kutuz'un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemshahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

¹² Altan Çetin. Cellaeddin Mengüberdi'nin akrabasi moğollari yenen harzemshahli bir mamlük sultani Kutuz'un kökeni

hakkında bazı tespitler.//Harzemshahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

¹³ Altan Çetin. Cellaeddin Mengüberdi'nin akrabasi moğollari yenen harzemshahli bir mamlük sultani Kutuz'un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemshahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

¹⁴ Altan Çetin. Cellaeddin Mengüberdi'nin akrabasi moğollari yenen harzemshahli bir mamlük sultani Kutuz'un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemshahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

birinchi musulmon xoni Berkaxon tug‘iladi¹⁵. Manbalarda Xonsulton Jo‘ji vafotidan keyin mo‘g‘ullarga oid ma‘lumotlarni Jaloliddinga yetkazib turgani haqida ham aytiladi¹⁶.

Yuqoridagi ma‘lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Sayfiddin Qutuz Ilal qal‘asida Turkon xotun bilan birga asirga tushadi va mo‘g‘ullar tomonidan Damashq qul bozoriga sotiladi. Dastlab uni Ibn Zaim ismli shaxs qul qilib oladi. Aynan mana shu shaxs sababli va ayyubiylarning ishonchli amiri Izaddin Oybek vositasida Qohiraga keladi. Tadqiqotlarda 1241–1242-yillarda Shomdagi harbiy harakatlarda mag‘lub bo‘lib, Bag‘dod xalifasi Mustansir Billohdan yordam olish uchun borgan xorazmliklarga sulton Jaloliddinning singlisining o‘g‘li bosh bo‘lgan sharqiy kuchlar Sherozdan kelib qo‘shilgani qayd etiladi¹⁷.

Ibn Tangriberdi Mahmud ibn Mamdudga Qutuz nomi mo‘g‘ullar tomonidan berilganligi, bu so‘z esa “Quturgan it” degan ma‘noni bildirishi yoziladi¹⁸. Sayfiddin Qutuz haqidagi rivoyatlarda esa Qutuzning asl ismi Mahmud ekanligi keltirilgan. Jumladan, Yununiy, Nuvayriy, Tangriberdilar keltirgan rivoyatga ko‘ra, Qutuzning ilk xojasi bo‘lgan Ibn Zaim kunlarning birida uni kaltaklab, oziq-ovqat bermay jazolaydi. Xojasi undan: “Ota-onang kofir emasmi?” – deganida Qutuz: “Yo‘q, men musulmon o‘g‘liman, Xorazmshoh Muhammad qizining o‘g‘liman. Men podshohlar avlodidanman, ismim Mahmud, otamning ismi Mamdud. Men bir kuni Misrga borib, Mo‘g‘ullarni yengaman”, – deb javob beradi¹⁹. Sayfiddin Qutuzga berilgan Qutuz so‘zining ma‘nosi haqida Bekzod Abdirimovning “Sayfiddin Qutuz – so‘nggi zarba” asarida yangicha fikrlar ilgari suriladi. Xususan, *Qutuz* so‘zining kelib chiqishi turkiycha bo‘lib, so‘zning o‘zagi bo‘lgan

“*qut*”dan olingan va bu odatda “baraka” so‘zi bilan qo‘shma so‘z sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, “*qut*” so‘zi “Qut-li”, “Qut-lug’”, “Qut-lov” kabi so‘zlarning o‘zagi bo‘lib ham keladi²⁰. Xalqimizda bugungi kunda ham “Qut” o‘zagiga qurilgan ismlar uchraydi – Qutlibika, Qutlimurod va hokazo. Shunday ekan, aytish mumkinki, Mahmud ibn Mamdudga mo‘g‘ullar tomonidan berilgan Qutuz nomi “Quturgan it” ma‘nosida emas, “Baraka”, “Baxt” ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lishi haqiqatga yaqin.

Ayyubiylarning parchalanishi va Mamluklar davlatining tashkil topishi. XII asrning 70-yillarida Salohiddin Ayyubiy sa‘y-harakatlari bilan Misr, Yaqin Sharq, Arabiston yarim oroli hududlarida vujudga kelgan Ayyubiylar davlati salibchilarga qarshi kurashdagi g‘alabalari bilan tarixda katta iz qoldirdi. Biroq Salohiddin Ayyubiyning vafotidan so‘ng uning farzandlari va qarindoshlari tomonidan hokimiyat uchun kurash, mulk va toj talashuvi davlatni inqiroz sari olib keldi. Dastlab Qohirada Aziz Usmon, Damashqda Afzal ibn Salohiddin, Halabda Zohir bir-biridan mustaqil hukm yuritadilar. XIII asrning birinchi yarmi esa o‘zaro taxt talashuvlari bilan o‘tadi. Faqatgina Halab 1260-yilgacha Salohiddinning vorislari qo‘lida qoldi. Misr 1250-yilga kelib mamluklar qo‘l ostiga o‘tib ketgandi²¹.

XIII asrning ikkinchi choragiga kelib esa G‘arbda salibchilar qayta uyg‘onayotgan, musulmon yerlariga qayta hujum qilayotgandi. Sharqda tarqoq Rum saljuqlari hamda Xorazmshohlar davlati kuchayib kelayotgan mo‘g‘ullar ta‘sirida Yaqin Sharqdagi siyosiy jarayonlarga ko‘proq aralasha boshladilar. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdining vafotidan keyin, xususan, 1237–1246-yillarda uning

¹⁵ B. Abdirimov, W. Sajjad. Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda / Sultan Jalaluddin Khuwarzshah In Pakistan. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. B. 202.

¹⁶ Altan Çetin. Celaledin Mengüberdi’nin akrabasi moğollari yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler. // Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 317.

¹⁷ D. Sabri Salim. al-Atrok al-Khwarezmīyun fi-sh-sharqi-l-adna-l-islami. – Cairo, 2000.

¹⁸ Altan Çetin. Celaledin Mengüberdi’nin akrabasi moğollari yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni

hakkında bazı tespitler. // Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 314.

¹⁹ Altan Çetin. Celaledin Mengüberdi’nin akrabasi moğollari yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler. // Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 315-316.

²⁰ А. Мадвалиев. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.

“Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти” Тошкент. 2020. - Б. 391.

²¹ SH. Vohidov. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. - B. 218.

harbiy kuchlari Yaqin Sharqda muhim rol o'ynadi. Bu davrda barcha Xorazm harbiy kuchlariga amir Muhammad Barakatxon ibn Davlat Malik rahbarlik qiladi. Uning qarorgohi Harron qal'asi edi²². Hisn Kayfdagi ayyubiy hukmdor Malik Solih ularni o'zining Raqqa, Saruch, Xarran va Urfa kabi Ko'niya saljuqiylari bilan chegaralarga joylashtiradi. Malik Solih Ayyubiy amirliklari ichida ko'zga ilinmaydigan chekka hududdagi amirlik darajasidan keyinchalik Misr hukmdori darajasigacha ko'tariladi. Bu darajaga ko'tarilishida xorazmlik harbiy qismlar muhim rol o'ynaydi.

1238-yil Misr hukmdori Malik Komil vafot etishi natijasida ayyubiylar o'rtasida ichki urushlar qizib ketadi. Malik Komilning o'g'li Malik Odil taxtga o'tiradi. Xorazmliklar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Malik Solih taxtni tortib olishga kirishdi. 1240-yil aprel oyida Malik Solih Misr hukmdori bo'lgan akasi Malik Odilga qarshi harakat boshladi va o'sha yili Misr poytaxti Qohirani egallab, o'zini Misr hukmdori deb e'lon qiladi. Malik Solih shundan boshlab xorazmliklardan iborat yollanma qo'shinining harbiy quvvatidan foydalanish ahamiyati va samarasini tushungan holda, ularning O'rta Yer dengizi qirg'oqlari va Misrga ko'chib kelishlarini rag'batlantiradi.

1249-yili Mansura shahri yaqinida salibchilar bilan bo'ladigan jangga tayyorgarlik davomida Malik Solih kasallik tufayli vafot etadi. Malik Solihning xotini Shajaratud-Dur hukmdorning vafot etganligini sir saqlab, uning Hisn Kayfda hokimlik qilayotgan o'g'li Turonshohni chaqirtiradi va urushni muvaffaqiyatli yakunlaydi. Shajaratud-Durning uddaburonligi sababli 1250-yili Malik Solih o'rnini o'g'li Turonshoh egallaydi. Turonshoh ham mamluklar (ayrim manbalarda Farisuddin O'qtoy, ayrimlarida Beybars) qo'li bilan o'ldiriladi. Hokimiyat amalda Shajaratud-Dur qo'liga o'tadi. Juma namozlarida minbardan turib, xutbaga musulmonlarning abbosiy xalifasi haqiga qilingan duolardan keyin Shajaratud-Durning nomi qo'shib o'qila boshladi. Biroq ko'p o'tmay uning hukmronligiga qarshi barcha joylarda g'alayonlar

boshlanadi. Xalq musulmonlar boshida ayol kishi turganidan norozi edi. G'alayonlardan sakkiz kun o'tib, Shajaratud-Dur taxtdan voz kechdi va Mu'iz mamluklari amiri Izzaddin Oybekka turmushga chiqdi. Bu nikoh Shajaratud-Durga Misr taxtni norasmiy bo'lsa-da egallash huquqini berardi.

Izzaddin Oybek 1250–1257-yillarda Misrni boshqardi. Uning haqiqiy ma'noda hukmronligiga mamluklardan O'qtoy va Beybarslarning Misrdagi katta mavqei to'sqinlik qilmoqda edi. Ayni vaqtda Suriya ayyubiylari Misrdagi mamluklar davlatini tan olmasdan unga qarshi kurashadilar, biroq ularga qarshi kurashlar jarayonida Izzaddin Oybekning obro'si osha boradi. Izzaddin Oybekning Bahriy mamluklari va Shajaratud-Dur ta'siridan qutilishida o'zi tomonidan tuzilgan "Mu'iz mamluklari" (Oybek mamluklari) guruhining o'rni katta bo'ladi. Bu guruhda xorazmliklar ko'pchilikni tashkil qilar edilar.

Sayfiddin Qutuzning hokimiyatga kelishi.

Ayn Jalut jangi. Izzaddin Oybekning mustaqil davlat boshqarishida, Bahriy mamluklaridek katta tayanchga ega bo'lgan malika Shajaratud-Durning aralashuvini tugatishda "Muizz mamluklari" guruhining o'rni katta bo'ldi. Mana shu mamluklarga Sayfiddin Qutuz boshchilik qiladi. Misr sultoni malikaning imkoniyatlarini qisqartirish uchun uning tayanchi bo'lgan Bahriy mamluklari sardori Farisuddin O'qtoyni yo'q qildi. Shundan so'ng yana bir mamluk sarkardasi Beybars boshchiligidagi Bahriy mamluklari tarqalib, Misrni tashlab, Suriyaga chiqib ketadilar. Ko'p o'tmay 1257-yili malika Shajaratud-Dur tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida Izzaddin Oybek o'ldiriladi. Sayfuddin Qutuz va Nuriddin Ali (Izzaddin Oybekning boshqa xotinidan tug'ilgan o'g'li) fitna sababchisi bo'lgan malika Shajaratud-Durni qatl qildiradi. Sayfiddin Qutuz boshchiligidagi Muizz mamluklari Oybekning fojeali o'limi sabab bo'sh qolgan taxtga uning o'n besh yoshli o'g'li Nuriddin Ali ibn Muizz Oybekni chiqarish kerak, degan xulosaga keldilar. 1257-yil Nuriddin Alini taxtga o'tqazdilar va unga Malik Mansur Ali laqabini

²² Бунятов .З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов 1097 – 1231 гг. – Баку: Элм, 1999. – С. 115.

berdilar. Ayrim mamluklar yosh bolani sulton deb e'tirof etishdan bosh tortdilar va ularning noroziliklari sabab bir necha tartibsiz qo'zg'olonlar sodir bo'ldi. Taxtga yoshi kichik bo'lgan bolaning o'tirg'izilishidan maqsad – vaqtdan yutish bo'lib, shu fursat ichida mamluklarning boshliqlaridan biri saltanat taxtini egallashi kerak edi. Qutuz endi davlatni rasmiy ravishda boshqarishga qaror qilib, yosh shahzodani taxtdan tushiradi va shu tariqa 1259-yilda Misr diyori hukmdoriga aylandi. Mamlakatdagi katta amirlar ham uning sultonligiga rozi bo'ldilar. Va uni podshoh taxtiga o'tqizib, "Muza'ffar" nomi bilan chaqira boshladilar²³.

Sayfuddin Qutuz mamlakat ichkarisida tinchlikka erishgan bo'lsa-da, tashqi siyosatda ancha ehtiyotkor edi. Chunki, bu paytgacha kelib mo'g'ullar Bag'dodni egallab, saltanat chegarasiga yaqinlashib qolgandi.

Shunday paytda Misrga Xulagu tomonidan 40 nafardan iborat elchilar guruhi yetib keladi. Sayfuddin Qutuz barcha amaldorlari, ulamolar, vazirlar va qo'shinboshilarni chaqirib Oliy Kengash yig'adi²⁴. Yig'ilishda mo'g'ullarning yengilmasligi haqidagi turli rivoyatlar og'izdan-og'izga o'tib kelayotgani xalq kabi majlis ishtirokchilarini ham ko'ngliga qo'rquv solgan edi. Yig'ilishda xorazmlik amir Nosiriddin Muhammad Ximriy ham mo'g'ullarning va'dalariga ishonib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Qutuz yig'ilishda mo'g'ullarga qarshi urush e'lon qiladi. Qutuz 4 nafar mo'g'ul elchilarini qatl qildirib, birining boshini Jabal qal'asi tagidagi Xayl bozoriga, yana birining boshini Zuvayl darvozasiga, uchinchisini Nasr darvozasiga va to'rtinchisini Raydoniya darvozasiga ostirdi.

Oxir-oqibat, 1260-yil 3-sentabr kuni Sayfiddin Qutuz boshchiligidagi Misr qo'shini Falastindagi Ayn-Jalut maydonida Kitbug'a boshchiligidagi mo'g'ul lashkari bilan to'qnashadi.

Jang arafasida Mamluk askarlarining ruhi baland bo'lsa ham, amirlarning hadik va qo'rquvi kuchli bo'lgan va iloji boricha mo'g'ullar bilan urush qilishni istashmagan. Sayfiddin Qutuz jang qilishini istamagan amirlarni darra bilan jazolagan va deyarli

har bir muhim pallalarda jangovar nutqlar qilib qo'shinni olg'a boshlagan.

Ayn Jalut maydoniga kirib kelgan Qutuz maydon atrofidagi chakalakzorlarga qo'shinlarni yashirishga va pistirmalar qo'yishga muvaffaq bo'ladi. Mo'g'ullarda Qutuzning pistirmadagi qo'shini haqida ma'lumotlar yo'q edi. Jang mo'g'ullarning Beybars qo'shiniga hujumi bilan boshlanadi. Qo'shinining asosiy qismi esa Qutuzning jangga kirish ishorasini kutib turar edi. Rejaga ko'ra, dovullar va boshqa cholg'u asboblari chalinib, ishora berilganda Beybars armiyasi o'zlarini qochayotgan ko'rsatib, vodiyni ichkarisiga chekinadi. Mo'g'ullar esa tuzoqni sezmasdan ularning ortidan ta'qib qilib, vodiyni ichkarisida yashiringan katta qo'shin tomon qarab boradilar. Keyin esa burg'u va dovullar chalinib yashiringan qo'shin quvib kelayotgan mo'g'ullarning atrofini o'rab olishadi. Hatto mo'g'ul qo'shini orqasini o'rab olishga ham muvaffaq bo'ladilar. Nihoyat mo'g'ul qo'shini jang maydonini tashlab ketishdan boshqa chora topolmaydi. Jang mamluklarning to'liq g'alabasi bilan tugaydi. Atrofdagi qamishzorga yashiringan mo'g'ullar ham mamluklar tomonidan yo'q qilinadi.

Qutuzning armiyasi bir necha hafta ichida butun Shomni mo'g'ullardan tozalashga muvaffaq bo'lishdi va Qutuz, o'n yillik parokandalikdan so'ng Misr va Shomning birlashganligini e'lon qildi. Misr, Falastin va Shomning barcha shaharlaridagi masjidlarda Qutuz nomi xutbaga qo'shildi.

Sayfiddin Qutuz Shomda tartib o'rnatib, o'z qo'shini bilan 1260-yili Qohiraga yo'lga chiqadi. Misrda esa sulton Sayfiddinni kutib olishga katta tayyorgarlik ko'rilayotgan edi. Qohira devorlari bo'ylab bezaklar o'rnatilgandi. Qusayrga yetib kelganida sulton shu yerda to'xtadi. Qo'shinining boshqa qismi esa Misrning sharqiy viloyatidagi Solihhiyyada chodir tikladi. Ana shu damlarda Sayfiddin Qutuz va Beybars Bunduqdoriy o'rtasidagi munosabatlar taranglashdi. Chunki, Sayfiddin Qutuz Beybarsga va'da qilingan Halabni bermagan edi. O'zining jasurligi va hiyla-

²³ Fatih Güzel Hülya Karababa Çakir. Kuruluş devrinde bir memluk sultani: Melikü'l-Muzaffer Seyfeddin Kutuz. Karefad. Tezis. Cilt: 7, Sayi: 2, Ekim, 2019. – S. 256.

²⁴ Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1946. Т. III. – С. 57.

nayranglari bilan tanilgan Beybars Bunduqdoriy o'z ittifoqdoshlari bilan Solihiyya yaqinidagi Qusayr shahri atroflarida ov qilishni rejalashtirgan Sayfiddinni o'ldirish uchun otlandilar. Ovga otlanayotgan Qutuzga Beybarsning ishorasi bilan hujum qildilar va bir necha bor xanjar urib qatl etdilar. Beybars Bunduqdoriy shu bilan hokimiyatni o'z qo'liga oldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Asosini turkiy xalqlar tashkil etgan mamluklar ta'siri ostida Misr va Yaqin Sharq mintaqasida yangi bir davlatning yuzaga kelishi, Sayfiddin Qutuzning tarix sahifasida paydo bo'lishi, Ayn Jalut jangi va undagi g'alabani nafaqat turkiy va musulmon xalqlari uchun, balki butun dunyo tarixidagi hal qiluvchi hodisa deb baholash mumkin. Chunki bu ulkan g'alaba faqat islom olamini qutqarib qolmadi, Yevropa dunyosini va Yevropa madaniyatini ham mo'g'ullar bosqinidan qutqarib qoldi. Aks holda mo'g'ullar Misrdan so'ng Sitsiliya va Gibraltar orqali Yevropaga o'tib borgan bo'lar edi²⁵;

Shuningdek, mazkur g'alaba natijasida Misr davlati qayta birlashib, o'rta asrlardagi eng gullagan davrni boshdan kechirdi, Sharqning ilm-fan, madaniyat markaziga aylandi;

Bir necha asr mobaynida Misr Mamluklar davlati Islom dini himoyachisi hamda markazi sifatida mavjud bo'ldi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. / Kamol Matyoqubov tarjimasi. / – T.: O'zbekiston, 2006. – 384 b.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahonkusho (Jahon fотиhi tarixi). Nazarbek Rahim tarjimasi, mas'ul muharrirlar H.Boltaboyev,

M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2015. 504 b.

3. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1946. Т. III., 337 с.
4. Altan Çetin. Celaledin Mengüberdi'nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz'un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. 418 s.
5. Abdirimov B. W.Sajjad. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. 248 b.
6. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)/A.Ahmad va M.Mahmud tarj.; Mas'ul muharrir; X.Sodiqov/. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Aabiyot va san'at nashriyoti, 1998. 256 b.
7. Sabri Salim D. Al-Atrok al-Khwarezmiyun fi-sh-sharqi-l-adna-l-islami. – Cairo, 2000.
8. Fatih Güzel, Hülya Karababa Çakir. Kuruluş devrinde bir memluk sultanı: Melikü'l-Muzaffer Seyfeddin Kutuz. Çankırı Karatekin Üniversitesi Karatekin Edebiyat Fakültesi Dergisi. Tezis. Cilt: 7, Sayı: 2, Ekim, 2019. 256 s.
9. Muhammed Said Güler. Moğol İstilası ve Aynıçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. 394 s.
10. Rajabov Q., Amonova F., Qandov B. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Ochun" nashriyoti, 2024. 512 b.
11. Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 624 b.
12. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти" Тошкент. 2020. 592 b.
13. Али Мухаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Қутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. 422 b.
14. URL:<https://kmu.edu.tr/kamam/bilgi/1362/4-memlukler-donem-kaynaklari>
15. URL:https://www.academia.edu/34772375/An_mamluk_history_bibliography_pdf

²⁵ Али Мухаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Қутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. - Б. 125.